

**JINOYATCHILIK VA HUQUQBUZARLIKKA MOYIL O‘QUVCHILAR
ORASIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLIH MAQSADIDA MAHALLA,
OILA HAMKORLIGINI OSHIRISH YO‘LIDAGI DAVLAT SIYOSATI.**

**Hasanov Sherzodjon Abdirashid o‘g‘li,
Mustaqil tadqiqotchi.**

Anotatsiya: Mazkur tezisda jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish masalalari hamda bu jarayonda mahalla va oila hamkorligining ahamiyati yoritilgan. Davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida yoshlar bilan manzilli ishlash, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, mahalla fuqarolar yig‘inlari, ta’lim muassasalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash masalalariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Mahalla, oila, yoshlar tarbiyasi, jinoyatchilik, huquqbuzarlik, profilaktika, davlat siyosati, hamkorlik, ijtimoiy muhit, o‘zini o‘zi boshqarish.

Bugungi kunda jamiyatda inson tarbiyasi va yoshlar kamoloti masalasi davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasida oila va mahalla institutlari ijtimoiy hayotning asosiy bo‘g‘inlari sifatida yosh avlod tarbiyasida, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda beqiyos o‘rin tutadi.

Mahalla — oila bilan eng yaqin ijtimoiy tuzilma bo‘lib, har bir fuqaroning turmush tarzi, oilaviy muammolari, farzandlarining xulq-atvori va ijtimoiy holatini yaxshi biladi. Shu boisdan, mahalla bilan oila hamkorligi nafaqat ijtimoiy nazorat vositasi, balki tarbiya, profilaktika va ma’naviyat manbai sifatida qaraladi. 2017–2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va faoliyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, jinoyatchilikka moyil o‘quvchilarni aniqlash va ularni ijtimoiy hayotga qaytarish masalasi davlat miqyosidagi vazifa sifatida belgilandi. Mahallalarda “Yoshlar bilan ishlash komissiyalari”, “Mahalla posboni” jamoat tuzilmalari, “Hududiy profilaktika inspektorlari” tizimi yo‘lga qo‘yilib, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va

huquqbuzarliklarni kamaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bu islohotlar natijasida 2017–2018 yillarda jinoyatlar soni 15 foizdan ortiq kamaygan. Shu bilan birga, “Oila – mahalla – maktab” konsepsiyasi asosida o‘zaro hamkorlik mexanizmi joriy etildi. Har yili o‘tkaziladigan hamkorlik oyliklari orqali ota-onalar, o‘qituvchilar va mahalla faollari o‘quvchilar bilan birgalikda tarbiyaviy va profilaktik ishlar olib borishmoqda. Mazkur tizim yoshlarni ijtimoiy faollikka, mas’uliyatli hayot tarziga, huquqiy madaniyatni egallashga yo‘naltirishga xizmat qilmoqda. “Ota-onalar universiteti” jamoatchilik tuzilmasining tashkil etilishi ham bu borada muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu tashabbus ota-onalarning pedagogik, psixologik va huquqiy bilimlarini oshirishga, oilalarda sog‘lom muhitni mustahkamlashga yordam bermoqda. Natijada, yosh oilalar, tarbiyasi og‘ir bolalar bilan individual ishlash tizimi kengaytirildi.

Yoshlar orasida jinoyatchilikka qarshi kurashda ijtimoiy muhitning sog‘lomligi, mahalla va oilaning o‘zaro ishonchi, ta’lim muassasalari bilan muntazam aloqa muhim ahamiyatga ega. Mahalla va oila hamkorligi nafaqat jinoyatchilikni kamaytiradi, balki yoshlarni jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Jamiyatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish va yoshlarning siyosiy faolligini oshirishda ommaviy axborot vositalari alohida o‘rin tutadi. Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari tizimi keng qamrovli bo‘lib, unga turli xil bosma nashrlar — gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, shuningdek, televideniye (kabelli va efir-kabelli), radioeshittirishlar, hujjatli kinolar, elektron axborot tizimlari kiradi. Bu vositalar davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa shakllardagi ommaviy davriy nashrlar ko‘rinishida faoliyat yuritib, fuqarolarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, ularning fikr-mulohaza va dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. To‘rtinchi hokimyat hisonlangan ushbu ommaviy axborot vositalari Konstitutsiyamizning 15-bob 81 hamda 82-moddalarida ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga toxtalib o‘tilgan.

Huquqiy tarbiya bugun nega dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yildi? Buning sababi shundaki, biz huquqiy-demokratik davlat qurayapmiz. Bu–hayotning barcha jabhalarida qonun ustivorligini ta’minlash degani. Ikkinchidan, o‘z huquqini bilmagan, burchini anglamagan inson o‘zini ham, Vatanini ham himoya etolmaydi. Mustaqillikning mustahkamligi, Vatanning kuch-qudrati, osoyishtaligi, islohotlarning

taqdiri fuqarolarning huquqiy ongiga bog‘liq. Huquqiy ongni o‘stirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish butun jamiyatimiz uchun suv bilan havodek zarur. Negaki, xalqimiz uzoq yillik mustabid tuzumi davrida o‘z huquqlarini bilishdan mahrum etib kelindi. Demokratiya uchun xalqning huquqiy ongliligi qanchalik zarur bo‘lsa, diktatura uchun huquqiy ongsizlik shunchalik kerak edi. Hatto qaram mamlakatning rahbar shaxslari ham siyosiy voqealar, davlat ishlari haqida fikrlashi, munosabat bildirishga imkonsiz edi. Ular sobiq markazdan berilgan har qanday topshiriqni muhokamasiz bajarishga mahkum edilar.

Xulosa qilib aytganda Oila va mahalla hamkorligi — yoshlar tarbiyasi, jinoyatchilikning oldini olish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning eng samarali omillaridan biridir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik tizimli yo‘lga qo‘yilgan taqdirdagina jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyillikni kamaytirish mumkin.

Davlat siyosatida oila institutini mustahkamlash, mahalla faolligini oshirish, yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish borasidagi islohotlar ijobiy natijalar bermoqda. Shu bois, kelgusida ham “oila – mahalla – ta’lim” uchligini yanada mustahkamlash, ota-onalar savodxonligini oshirish va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish masalalariga ustuvor ahamiyat berilishi lozim. Yoshlarning huquqiy, ma’naviy va fuqarolik madaniyatini oshirish orqali ularni yot g‘oyalar, zararli odatlar va huquqbuzarliklardan himoya qilish — jamiyatimizning barqaror va farovon kelajagini ta’minlashning eng muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқлол, шқтисод, сиёсат ва мафкура. – Тошкент: 1996. – Б. 67.
2. Egamberdiyev A.R., B.J.Axrorov Jinoyat huquqi. Darslik. – Toshkent: 2017.
3. Qodirov E. Yoshlar jinoyatchiligini oldini olish masalalari. – Toshkent: Nishon noshir, 2017. – B. 43-45.
4. Камолова М.А. Вояга етмаганларда хулқ оғишининг ижтимоий психологик сабаблари ва шароитлари. . // Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги академиясининг Ахборотномаси. 2021 йил, 3-сон. – Б. 133.